# Bugun tug’ilgan kun! Akademik Ahmadali Asqarov

O’zbekison Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor Ahmadali Asqarov bugun 85 yoshni qarshiladi.

Akademik Ahmadali Asqarov 1935-yil 25-sentyabrda Namangan viloyati Norin tumanida tug’ilgan.

1957-yilda Nizomiy nomidagi pedagogika davlat universitetini tugatgan A. Asqarov o’z faoliyatini O’zR FA ning Tarix va arxeologiya institutida davom ettirgan. 1963-yilda “Zarafshon quyi oqimi havzasi bronza davrida” mavzusidagi nomzodlik ishini, 1977-yilda esa Moskvada “Janubiy O’zbekiston bronza davri madaniyati (qadimgi sharq tamaddunining mintaqaviy o’choqlari rivoji muammolari)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Turli yillarda Tarix va arxeologiya institutida kichik ilmiy xodim (1961-1963), ilmiy xodim (1963-1966), 1966-yildan esa ilmiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari bo’lib ishladi. Shundan so’ng 1970-1980 va 1983-1987-yillarda yangi tashkil etilgan Arxeologiya institutida direktor lavozimida ishladi. 1984-1998-yillarda O’zR FA Prezidiumi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo’limi raisi, 1991-1995-yillarda O’zR FA tarix instituti direktori sifatida faoliyat ko’rsatgan. Akademik A.Asqarovning ilmiy qiziqishlari ko’lami juda keng: O’rta Osiyo bronza va ilk temir davri ilk dehqonchilik va chorvachilik xo’jaliklarining shakllanishi tarixi, O’zbekiston hududida davlatchilik va shaharsozlik paydo bo’lishi, o’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, zardushtiylikning vujudga kelish manbalari va shakllanishi, arxeologik manbalar asosida milliy kurash sporti tarixini tiklash. U Old Osiyo tipidagi ilk dehqonchilik manzilgohlaridan bo’lgan Sopolli madaniyatini va noyob Jarqo’ton ibodatxonasini ochish sharafiga muyassar bo’ldi. A. Askarov – 450 dan ortiq ilmiy nashrlar, jumladan, 20 dan ziyod monografiya, darslik va uslubiy qo’llanmalar muallifi. Ulardan 50 dan ortig’i chet tillarda nashr etilgan. Akademik A. Asqarov Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati (1985-yil), O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi (1995-yil) hisoblanadi.

Akademik Ahmadali Asqarovni bugungi tavallud ayyomi bilan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Milliy arxeologiya markazi hamda ko’p sonli shogirdlari nomidan tabriklab, ularga sog’liq salomatlik hamda kelgusi ilmiy tadqiqotlarida yangidan-yangi kashfiyotlar tilab qolamiz.